

**SUG`ORILADIGAN TIPIK BO`Z TUPROQLAR SHAROITIDA  
BAHORGI MUDDATDA EKILGAN SOYANING 1000 DONA DON  
MASSASIGA TASIRI**

*q.x.f.f.d., (PhD) v.b. dotsent., Xoliqov Abror Tojimurodovich\**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali, Toshkent. O`zbekiston.*

*e-mail: [abrорxoliqov@mail.com](mailto:abrорxoliqov@mail.com)*

**Annotation.** Toshkent viloyatining qadimdan sug`oriladigan tipik bo`z tuproqlari sharoitida soyani Toshkent va Selekta-302 navlarining asosiy ekin sifatida maqbul qator kengliklarida ekish tizimlari va ko`chat qalinligini ishlab chiqish yuqori don hosili yetishtirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan.

**Annotation.** V usloviyax starooroshayemykh tipichnyx serozemnyx pochv Tashkentskoy oblasti vyiyavleno vajnoye znacheniye razrabotki sxem poseva i gustoty stoyaniya sortov soi Tashkent i Selekta-302 poseyannoy v kachestve osnovnoy kulturnyj pri optimalnoy shirine mejduryadiy dlya polucheniya vysokogo urojaya zerna.

**Annotation;** Based on the research work on development of optimal sowing scheme and plant density to obtain high-quality grain yield of soybean varieties Selekta-302 and Tashkent in conditions of typical sierozem soils of the Tashkent province:

**Kalit so`zlar:** eskidan sug`oriladigan tipik bo`z tuproq, asosiy ekin soya navlari, ekish tizimlari, unuvchanlik, harorat, bahorgi muddat, ko`chat qalinliklari va 1000 dana don og`irligi.

**Kirish:**

Bugungi kunda dunyo bo`yicha aholini qishloq xo`jaligi mahsulotlari, sanoatni xom ashyoga bo`lgan talabi ortib bormoqda. Xozirgi kunda soya asosiy

ekin sifatida Braziliya, AQSh, Argentina, Hindiston, Xitoy va boshqa davlatlarda yetishtirilib, jami 130,4 mln. gektar maydonni tashkil etib, o`rtacha don hosildorligi 30,5 ts/ga ni tashkil etadi<sup>1</sup>. Bir gektar yerdan olinadigan yalpi hosildorlik Yaponiyada 70 ts/ga, Xitoyda 55 ts/ga, Germaniyada 44 ts/ga ga tengdir<sup>2</sup>. Bu esa o`z navbatida tuproq unumdarligini saqlash hamda oshirish, qishloq xo`jaligida soya ekinidan yuqori va sifatli mahsulotlar yetishtirish qanchalik dolzarb ekanligini ko`rsatadi.

### **Natija va munozaralar.**


Ilmiy manbalarda soya ekinining hosil sturukturasini ifodalovchi ko`rsatkichlaridan hosilini yig`ishtirishgacha saqlangan o`simliklar soni, o`simlik bo`yi, soyaning yangi navlarining hosildorligi hosil sturukturasi ko`rsatkichlariga xususan o`simlikning bo`yi, bir tup o`simlikdagi dukkaklar soni, bir dona dukkakdagi donlar soni, bir tup o`simlikdagi donlar massasi va 1000 dona don massasi kiritildi.

Olib borgan tadqiqotlarimizda soyaning don hosildorligi 25,0-34,8 ts/gani tashkil qildi. Tadqiqotlarda soyani eng yaxshi ko`rsatkichlar hosil elemintlarining ko`proq to`planishi hamda hosildorligi jihatdan soyaning 286 ming tup/ga parvarishlangan Toshkent navini bahorgi muddatida ekilganda kuzatilib, 1000 dona don vazni 170,7 grni tashkil etdi, soyani eng yaxshi ko`rsatkichlar hosil elemintlarining ko`proq to`planishi hamda hosildorligi jihatdan soyaning 332 ming tup/ga parvarishlangan Selekta-302 navini bahorgi muddatida ekilganda kuzatilib, 1000 dona don vazni 139,5 grni tashkil etdi.

Olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida soyani eng yaxshi ko`rsatkichlar hosil elementlarining ko`proq to`planishi hamda hosildorligi jihatdan soyaning 286 ming tup/ga parvarishlangan Toshkent navini bahorgi muddatida ekilganda kuzatilib, 1000 dona don vazni 169,3 grni tashkil etdi, soyani eng yaxshi ko`rsatkichlar hosil elemintlarining ko`proq to`planishi hamda hosildorligi jihatdan soyaning 275 ming tup/ga parvarishlangan Selekta-302 navini bahorgi muddatida ekilganda kuzatilib, 1000 dona don vazni 163,3 grni tashkil etdi.

<sup>1</sup><http://www.soyka.rusoyarus.shtml>

<sup>2</sup>[http:// www.uz.denemetr.com](http://www.uz.denemetr.com).



### *Soya navlarini 1000 dona don og`irligi.*

**Material va uslublar.** Tajribani joylashtirish, fenologik kuzatishlar, unib chiqqan nihollarni hisob-kitob qilish ishlari O`zPITIning “Dala tajribalarini o`tkazish uslublari” (2007) qo`llanmasi asosida o`tkazildi.

T.A.Raximov, R.I.Siddiqov (2020) larning keyingi ilmiy ishlarida tajribaning 4-muddat 19-aprelda ekilgan soya navlaridan birgina Selekta-201 navidan tashqari barcha navlardan 10-aprelda ekilgandagiga nisbatan har gektaridan 2-3 tsentnergacha kam miqdorda don hosili olindi, tajriba maydonida o`tkazilgan dala kuzatuvlari, o`simliklarning o`sish va rivojlanish jarayonlaridagi xolati hamda o`simliklarning tuproq sharoitiga, iqlimga nisbata ta'sirchanligi turli ekish muddatlarida o`zgacha bo`lishi olib borilgan tadqiqotlarda o`z isbotini topdi. Andijon viloyatining tuproq iqlim sharoitida soyaning ertapishar va o`rtapishar navlarini 10-aprel atrofida ekish eng maqbul muddat bo`lib, don hosilining mo`l bo`lishini ta'minlaydi.

X.N.Atabayeva (2020) ning ilmiy ishlarning asosiy natijasi bu olinadigan hosil Orzu navining hosili nazorat variantida 19,1 ts/ga ni tashkil qildi, mineral o`g`itlar qo`llanilgan variantda hosildorlik 5,5 ts/ga oshdi, temir elementi kam me'yorda qo`llanilganda 25,3 ts/ga hosil olindi, bu nazoratga nisbatan 6,7 ts/ga

qo`shimcha hosil olindi, o`rta me'yorda qo`llanilganda nazoratga nisbatan 1,2 ts/ga hosil olindi, yuqori me'yorda qo`llanilganda hosil nazorat variantiga teng bo`lganligi kuzatildi, fon variantiga nisbatan hosil kamayganligi qayd qilingan.

**Xulosa.**

Olingan uch yillik natijalardan shuni xulosa qilish mumkinki, tadqiqotlarimizda soyani eng yaxshi ko`rsatkichlar hosil elemintlarining ko`proq to`planishi hamda hosildorligi jihatdan soyaning 286 ming tup/ga parvarishlangan Toshkent navini bahorgi muddatida ekilganda kuzatilib, 1000 dona don vazni 169,7 grni tashkil etdi, soyani eng yaxshi ko`rsatkichlar hosil elemintlarining ko`proq to`planishi hamda hosildorligi jihatdan soyaning 275 ming tup/ga parvarishlangan Selekta-302 navini bahorgi muddatida ekilganda kuzatilib, 1000 dona don vazni 139,5 grni tashkil etgaligi kuzatilgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Dala tajribalarini o`tkazish uslublari. Toshkent-2007 y.
2. Raximov T.A, Siddiqov R.I. Turli ekish muddatlarini soya navlarining xo`jalik biologik ko`rsatkichlariga ta'siri. Qishloq xo`jaligi va oziq-ovqat ta'minoti ilmiyishlab chiqarish markazi «Qishloq xo`jaligi ilm-fanida yoshlarning roli» respublika ilmiy-amaliy konqereniyasi 14-15 avgust ilmiy maqolalar to`plami II-jildlik Toshkent-2020 y. 267-269 b.
3. Atabayeva X.N. Mineral o`g`it fonida temir elementining soya navlarining hosildorligiga ta'siri. “Agrar fan nazariyasi va amaliyotidagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari Toshkent davlat agrar universiteti tashkil etilganligining 90 yilligiga bag`ishlangan xalqaro konferentsiyaning materiallar” to`plami. Toshkent-2020 y. 838-842-b.